

## “XAZOYIN UL-MAONIY” KULLIYOTIDA JANRLAR TASNIFI

Azamova Shahzodaxon Akramxo‘ja qizi

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi  
 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19855160>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “ Chor devon “ deb nomlangan “ Xazoyin ul-maoniy “kulliyoti hamda kulliyotdagi devonlar tarkibida bir-birida uchramaydigan janrlar haqida ma‘lumot beriladi

**Kalit so‘zlar:** kulliyot, devon, “ Xazoyin ul-maoniy “, musamman, tarkibband, masnaviy, qasida, soqiynoma, ruboiy, muammo, tuyuq, lug‘z, fard

“ Xazoyin ul-maoniy “ asari xalq orasida “ Chor devon “ va kulliyot kabi nomlar bilan yuritiladi. Kulliyot (arab. كَلِّيَّات — to‘la, butun) — muayyan adibning to‘la yoki asosiy asarlari to‘plami. Kulliyot adib ijodida harakterli ayrim janrlardagi asarlardan tuzilishi ham mumkin. Masalan, "Kulliyoti qasoyidi Xoqoniy" ("Xoqoniy qasidalari kulliyoti"). Kulliyotga shoir yoki yozuvchining hamma asarlari kiritilgan bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Navoiyning Toshkent, Sankt-Peterburg, Parij va Istanbul kutubxonalaridagi kulliyotlari mukammal emas. Ammo shoirning asosiy asarlarini o‘z ichiga olganligi uchun kulliyot deb yuritiladi.

“ Xazoyin ul-maoniy “ devoni 1492-1498-yillar oralig‘ida Husayn Boyqaro taklifi bilan tuzilgan, Navoiyning rasmiy devonlari o‘rin olgan to‘plamdir. Kulliyotga Alisher Navoiyning 4 rasmiy devoni kiritilgan bo‘lib, ular “ G‘aroyib us-sig‘ar “, “ Navodir ush-shabob “, “ Badoyi ul-vasat “, “ Favoyid ul-kibar “ kabi devonlaridir. Asar mana shunday to‘rt devonni o‘ziga qamrab olganligi sababli “ Chor devon “ deb nomlanadi.

Alisher Navoiy kulliyot tarkibidagi har bir devonni inson umrining fasllariga taqsimlab beradi. Jumladan, “ G‘aroyib us-sig‘ar “ dagi she‘rlari Navoiyning 7-8 yoshdan 20 yoshiga bo‘lgan davrni qamrab oladi va bu davrni shoir umr bahori deb ataydi. Umrining 20 yoshdan 35 yoshigacha o‘tgan vaqtini Navoiy inson umrining yozi deb nomlaydi hamda bu davrni “ Navodir ush-shabob “ ( “ Yigitlik nodirliklari “ deb ataydi. Kulliyotning uchinchi devoni hisoblangan “ Badoye’ ul-vasat “ devoni 35-45 yoshni qamrab oladi va bu davrni Navoiy umrning kuzi deb nomlaydi. Kulliyotning so‘nggi “ Favoyid ul-kibar “ devonini umrning qishi deb ataydi hamda bu davr 45-60 yoshni o‘z ichiga oladi. Har bir devonga 650 tadan g‘azal kiritdi, shunga muvofiq boshqa she‘riy janrlarga ham joy ajratadi.

“ Xazoyin ul-maoniy “ kulliyoti turkiy she‘riyatning gultoji bo‘lib, jami 16 lirik janrni o‘z ichiga oladi. Bu she‘riy janrlar har bir devonga muayyan tartibda joylashtirilgan va bu janrlarga oid she‘rlarning umumiy hajmi 3132 ga teng. Xususan, “ G‘aroyib us-sig‘ar “ va “ Navodir ush-shabob “ devonlariga 8 tadan, “ Badoye’ ul-vasat “ va “ Favoyid ul-kibar “ devonlariga 9 tadan janr kiritilgan va devonlarning hajmi ham bir-biridan unchalik farq qilmaydi.

Kulliyotning yana bir o‘ziga xosligi shundaki, asar tarkibidagi devonlarga kiritilgan janrlar bir-birini takrorlamaydigan janrlar ham uchraydi. Jumladan, kulliyotning birinchi devoni “ G‘aroyib us-sig‘ar “ da boshqa devonlarda uchramaydigan janrlar masnaviy va ruboiydir. Devonga bitta masnaviy va 133 ta ruboiy kiritilgan.

Ruboiy ( arabcha – “ to‘rtlik “ ) – Sharq mumtoz she‘riyatida keng tarqalgan lirik janr, hazaj bahrining axrab va axram shajaralarida yozilib, ko‘proq a-a-b-a tarzida qofiyalanuvchi to‘rt

misrali mustaqil lirik asar. Arabcha nomlanishiga qaramay, ruboiy dastlab forsiy adabiyotda paydo bo'lib, keyin arab va turkiy adabiyotlarga o'tgan. Ruboiy janri asoschisi Abu Abdullo Rudakiy hisoblanadi. Ruboiyni janr sifatida belgilovchi muhim xususiyatlaridan biri uning vazni, ya'ni hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida yozilishi e'tirof etiladi.

Ruboiyning kompozitsion qurilishi ma'lum bir masala yuzasidan fikrni izchil rivojlantirib, ixcham va tugal ifodalashga mos: dastlabki ikki misrada g'oya va maqsad, keying ikki misrada dalil va xulosa o'z aksini topadi. Shundan kelib chiqib ruboiyning birinchi misrasi tezis, ikkinchisi antitezis, uchinchi maddai ruboiy ( yoki xulosa uchun asos bo'ladigan ko'prik ), to'rtinchi misra esa sintez deyiladi.

Masnaviy (arab. — ikkilik. Ko'pligi — masnaviyot) — har bir baytning misralari qofiyadosh bo'lgan va baytdan baytga qofiyasi yangilanib boradigan she'riy shakl (a-a, b-b, v-v, ...). Mumtoz adabiyotda (mas, Alisher Navoiy asarlarida) syujetli kichik she'riy asarlar ham, dostonlar ham M. deb yuritiladi. Turkiy adabiyotda M. She'r masnaviy shaklida fors tilida turli metrlarda yozilgan. Bu kitob Eron va jahon shoiri Rumiyning qimmatli asarlaridan biridir. shakli ilk bor Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llangan. Durbekning "Yusuf va Zulayho", Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" asarlari M.da bitilgan. Navoiy davriga kelib M. epik she'riyatning asosiy janri bo'lib qoldi. Ulug' shoirning asosiy epik asarlari ("Hamsa", "Lison uttair" va boshqalar) M. janrida yozilgan. M. hozirgi zamon o'zbek she'riyatida ham qo'llanmoqda. Masalan, H. Olimjonning "O'zbekiston" she'ri, G'. G'ulomning "Ko'kan", "Egalari egallaganda" dostonlari va boshqalar.

“ Navodir ush-shabob “ devonida esa bitta tarkibband va 52 ta muammo uchraydi.

Tarkibband ( arabcha – tuzilish; forsha – bog'lash ) – mumtoz adabiyotdagi o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega yirik lirik janr. U qurilishi jihatidan tarjibandga o'xshash, faqat unda bandlar oxiridagi bayt tarje' emas, har bir band oxirida butunlay yangi bayt keltiriladi. Tarkibbandning bandlari g'azalni eslatadi, faqat unda taxallus keltirilmaydi.

Muammo – ( arabcha – ko'r qilingan, ko'rmaydigan ) mumtoz she'riyatdagi topishmoq janrlaridan biri, ko'proq fard, ya'ni bir baytdan tashkil topuvchi she'riy asar. Muammoda biror ism ( yoki joy nomi ) yashiringan bo'lib, uni topish uchun baytdagi biror so'z ( yoki birikma ) ustida ishora qilingan amallarni bajarish lozim bo'ladi. Ushbu amallar so'zning arab yozuvidagi shakli bilan bog'liq, goh so'zni chappa o'qish, goh harflar o'rnini almashtirish kabi ko'rinishlarda bo'ladi. Xuddi shu narsa muammoni narsa-hodisaga xos belgilarni vasf etish bilangina jumboq hosil qiluvchi lug'zdan farqlab turadigan o'ziga xos xususiyatdir.

Kulliyot tarkibiga kiruvchi uchinchi devon “ Badoye' ul-vasat “ da boshqa devonlarda uchramaydigan janrlar bu qasida, lug'z, tuyuq janrlaridir.

Qasida (arab tilidan olingan bo'lib — ko'zlamoq, niyat qilmoq ma'nosini anglatadi) — Sharq mumtoz adabiyotidagi she'riy janrlardan biri. Qasida biror shaxsning (ko'pincha hukmdorning) madhiga bag'ishlangan. uchun ko'tarinki, tantanavor ohang xos. Hajmi 20 baytdan 200 baytgacha bo'lishi mumkin. G'azalga o'xshab qofiyalanadi (aa, ba, va, ...). Kompozitsiyasi g'azalga nisbatan murakkab bo'lib, nasib (yoki tashbib) deb ataluvchi lirik muqaddima, gurezgoh (qochish joyi; nasibdan asosiy qism — madhga o'tish vazifasini bajaruvchi bayt yoki baytlar), madh (maqto'v) va mamduh (maqtalayotgan shaxs) haqidagi duo va matlabni o'z ichiga oluvchi xulosa qismlardan iborat. Qasida mazmuniga ko'ra, Qasidayi bahoriya, Qasidayi ishqiya, Qasidayi holiya (o'z ahvolidan shikoyat tarzida), Qasidayi hamriya

(may bilan bog'liq tasvir), Qasidayi hazoniya (kuz tasviri), Qasidayi faxriya (shoirning o'z iste'dodidan faxrlanishi), Qasidayi hajviya tipida bo'lishi mumkin. 11—12-asrlardan uning mazmun va mavzu doirasi kengayib, falsafiy, axloqiy, ijtimoiy qasidalar ham yozilgan (masalan, Unsuriy, Anvari, Xoqoniy qasidalari).

O'zbek mumtoz qasidalari arab va fors qasidachiligi zaminida yuzaga kelgan, uning ilk namunalari „Devonu lug'otit turk“da uchraydi. 15-asrda Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy, Amiriylar ijodida qasida o'zining yuqori bosqichiga ko'tarilgan. Ayniqsa, Sakkokiy yaratgan qasidalar alohida ajralib turadi. Uning devonida 10 ta qasida bo'lib, undan 4 tasi hukmdor va olim Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan. Alisher Navoiyning original kompozitsiya va uslubga ega bo'lgan „Hiloliya“, katta ijtimoiy mazmun tashuvchi „Tuhfat ulafkor“ („Sittayi zaruriya“dan) qasidalari mashhurdir. Keyingi davrda o'zbek adabiyotida Munis va boshqalar shoirlar ham bu janrga murojaat qilganlar.

Qasida — [ قصيده ] — arabcha „qasd“ so'zidan olingan bo'lib, „maqsad“, „niyat“, „biror ishga qasd qilish“ ma'nolarini bildiradi. Nazmiy asar turi. Sharq mumtoz adabiyotidagi she'riy janrlardan biri, ko'pincha biror shaxsning madhiga bag'ishlanadigan, shuningdek, falsafiy, axloqiy-didaktik, ijtimoiy mazmundagi, ko'tarinki, tantanavor ohangli, g'azalga o'xshab qofiyalanadi, hajmi 20 baytdan 200 baytgacha bo'ladigan she'riy asar. Qasidalar g'azalga o'xshash tarzda qofiyalanadi. Ya'ni a-a, b-a, d-a... Lekin hajm jihatidan cheklanmaydi. Mumtoz she'riyatimizda yaratilgan qasidalarning aksar qismi hukmdorlar madhiga bag'ishlangan. Sakkokiyning Ulug'bekka, Navoiyning Husayn Boyqaroning taxtga chiqishiga bag'ishlab yozgan qasidalari qasida janrining eng yaxshi na'munalari sanaladi. Qasida tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Qasidayi tom (to'liq qasida) — bunda qasida 4 qismdan tarkib topadi :
    - a) nasib — lirik kirish (tabiat tasviri)
    - b) gurizgoh — nasib bilan madhni bog'lovchi, 4-5 baytdan tashkil topgan qism
    - c) madh — asosiy qism
    - d) qasd — mamduh(madh etilayotgan shaxs)ga niyat va istaklar bildirilgan qism.
  2. Qasidayi mujarrada (tovliq bo'lmagan, chala qasida) — bunda faqat madh keltiriladi.
- Qasidalar mavzusiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) Vasfiy qasida
- b) Madh qasida
- c) Hajv qasida
- d) Marsiya qasida
- e) Munojot qasida
- f) Falsafiy qasida

Lug'z ( arabcha – topishmoq, sir, maxfiy ) – she'riy topishmoq, narsa-tushunchaning nomini aytmagan holda o'xshashlik yoki aloqadorlik asosidagi belgilarni tavsiflashga asoslangan janr. Ya'ni lug'zda shoir narsa-tushunchaga ishora qiladi, tinglovchi esa zikr etilgan belgilarga tayanib yashirilgan nomni topishi lozim bo'ladi.

Tuyuq ( arabcha “ tuyuq, his qilmoq “ ) – turkiy xalqlar she'riyatidagi to'rt misralik, tajnisli qofiyaga asoslangan, ramali musaddasi maqsur ( kamdan kam hollarda ramali musaddasi mahzuf ) vaznida yoziluvchi lirik janr. Tuyuqlar ko'proq a-a-b-a tarzida qofiyalanadi, shuningdek, a-a-a-a yoki a-b-v-b tarzida qofiyalangan ko'rinishlari ham mavjud. Dastlab xalq

og'zaki ijodida paydo bo'lgan tuyuq janri keyinchalik ko'plab mumtoz shoirlar e'tiborini tortgan: Lutfiy, Navoiy, Yusuf Amiriy, Ubaydiy, Ogahiyalar tuyuq janri rivojiga o'zlarining hissalarini qo'shganlar. Alisher Navoiy tuyuq janri haqida: "Tuyug'dirkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdir..." deb ta'rif beradi. Bu misralarda Navoiy tajnisli qofiya masalasida qat'iy talab qo'ymasa ham, "tajnis aytish" ga harakat qilish lozimligini uqtiradi.

Kulliyotning so'nggi "Favoyid ul-kibar" devonidagi boshqa devonlardan farqli janrlar – musamman, soqiynoma, fard kabilar.

Musamman – ( arabcha - "sakizlik" ) – 1) arab, fors-tojik va o'zbek mumtoz she'riyatidagi she'riy turlardan biri. Musamman 8 misrali bir necha banddan tashkil topadi. Birinchi band yagona qofiyaga ega bo'ladi, keyingi bandlarning faqat 7 misrasi qofiyadosh bo'lib, 8 misrasi birinchi band bilan qofiyalanadi: a-a-a-a-a-aa-a, b-b-b-b-b-b-b-a, v-v-v-v-v-v-a kabi; a) aruzda har baytda bir running 8-marta takrorlanishidan vazn hosil bo'lishi.

Fard ( arabchadan olingan bo'lib, "yakka", "yolg'iz" ) – Yaqin va O'rta Sharq adabiyotidagi poetik janr. Hajmi bir bayt, ya'ni ikki misradan iborat bo'ladi. Muayyan mazmun, g'oya ilgari suriladi, badiiy umumlashma, hayotiy tajribadan kelib chiquvchi hukm, xulosa bayon etiladi. Fardda dolzarb, salmoqli falsafiy, axloqiy g'oyalar ifodalanadi. Fardning ixchamligi va qisqaligi Mashrab aytganidek, shoirdan "Ming ma'nini bir nuqta bilan muxtasar etish" ni taqozo etadi. Fard janriga xos erkinlik shoirning ijodiy imkoniyatini kengaytiradi, ijodiy erkinligini ta'minlaydi.

Soqiynoma ( arabcha – suv ulashuvchi, ruhiy ozuqa beruvchi, xat ) – bir millat banddan tashkil topib, uning har bir bandi masnaviy shaklidagi bir necha baytdan ( a-a, b-b, v-v va hokazo ) tarkiblanadi. Manbalarda soqiynomaning qat'iy shakliy belgilari sifatida mutaqorib bahrida yozilishi va har bir bandining soqiyga murojaat bilan boshlanishi kuzatiladi.

Bundan tashqari, "Xazoyin ul-maoniy" da g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarji'band, qit'a kabi janrlar uchraydi. Bu janrlarning yuqoridagi janrlardan farqli jihati shundaki, bu janrlar kulliyotning tarkibiga kirgan har bir devonda uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, "Xazoyin ul-maoniy" Alisher Navoiy ijodidagi yirik namunalardan biri sanalib, kulliyotda Navoiyning ijodiy merosi qanchalik rang-barang janrlardan tarkib topganligi ham kuzatish mumkin.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Adabiyotshunoslik lug'ati / D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2013, – 408 b.
2. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik / darslik. – T.: "Tamaddun", 2019. –520 b.
3. <https://www.wikipedia.org>.
4. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asarining o'rni va ahamiyati – Xabibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li.